

## GLOBALASHUV DAVRIDA MAMLAKATDA FRILANSERLIK FAOLIYATI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARINI TAKOMILLASHTIRISH

**Lutpidinov Shuxrat Zakirdjanovich**

Namangan davlat universiteti  
“Yashil iqtisodiyot va barqaror biznes” kafedrası  
katta o‘qituvchisi (PhD)  
E-mail: [lutpidinov.shuxrat@mail.ru](mailto:lutpidinov.shuxrat@mail.ru)

### Annotatsiya

Har bir mamlakat aholisining yashash sharoitini yaxshilashda xizmat ko‘rsatish sohasining o‘rni beqiyosdir. Ushbu sohani rivojlantirish barcha davlatlar oldidagi asosiy maqsadga aylanib qolmoqda. Mamlakatda xizmatlar sohasining ortib borishi aholining yashash sharoitining yaxshilanishiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir etadi. Bunga sabab xizmatlar sohasining rivojlanishi bevosita mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi bilan parallel holatda aholining turmush darajasi va yashash sharoiti ham yuksalib boradi.

**Kalit so‘zlar:** frilans-xizmatlar, frilanserlik, frilanserlik faoliyati, frilanserlik va onlayn mehnat bozorlari, frilanserlik saytlari.

### Аннотация

Роль сферы услуг в улучшении условий жизни населения каждой страны неопределима. Развитие этой сферы остается главной целью всех государств. Рост сферы услуг в стране напрямую влияет на улучшение условий жизни населения. Это связано с тем, что развитие сферы услуг идет параллельно с развитием экономики страны, повышается и уровень жизни населения, и условия жизни. Ключевые слова: фриланс-услуги, фриланс, фриланс-деятельность, фриланс и онлайн-рынки труда, сайты фрилансеров.

**Ключевые слова:** фриланс-услуги, фриланс, фриланс-деятельность, фриланс и онлайн-рынки труда, сайты фрилансеров.

### Abstract

As a result of large-scale empirical studies, which began in the 90s of the 20 th century in Western Europe and the United States, various employment manifestations and labor relations were formed, but they have little data on freelancing activities or digital technologies. The development of freelancers, in turn, is inextricably linked with the internet system and the events and phenomena taking place in it.

**Keywords:** freelancing-services, freelancing, freelancing activities, freelancing and online labor markets, freelancing sites.

### KIRISH

Mehnat bozoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mehnat bozoridagi jiddiy tarkibiy o‘zgarishlar ta’sirida frilans-xizmatlar bozori shakllanmoqda. Frilanserlik faoliyati mehnat bozoridagi tutash sohalardan biridir, frilans va frilanserlik faoliyatidagi har qanday o‘zgarishlar mehnat munosabatlaridagilar xam kiradi ta’sirida mehnat qonunchiligi o‘zgaradi va bir necha ozod ishchilar qatlami shakllanadi. Shu

bilan birga frilanslar ijtimoiy himoyaga muhtojdirlar, barcha mehnat munosabatlarida bu soha koʻzga tashlanmaydi.

Doimiy ishlovchi ishchi-xodimlardan tubdan farq qiladi. Shu bilan birga koʻplab mamlakatlarda, xususan Rossiya Federatsiyasida frilanserlik faoliyatini oʻrganish maqsadida keng masshtabli tadqiqotlarni amalda oʻtkazishning iloji yoʻq. Hamda Gʻarbiy Yevropa va AQShlarida oʻtkazilgan tadqiqotlar koʻplab omillar taʼsirida frilanserlik faoliyati rivojlanishi oʻrganildi, chuqur tarkibiy ixtisoslashuv esa mehnat munosabatlari va bandlikdagi yangicha koʻrinishdagi transformatsiyalashuv jarayoni kuzatildi.

## ADABIYOTLAR SHARHI

Frilanserlik faoliyati, frilanslarni shakllanishi va rivojlanishi bilan bogʻliq ilmiy tadqiqot ishlarini bilan koʻplab xorijlik olimlar, jumladan, Amitay Ensioni, Codementor B, Z.Ahmed, Djon.K.Gelbreyt, E.Toffler, D.Bailey, N.Kurland, T.W.Malone, R.Laubacher, K.Gareis, W.Thomas Malone, Robeit Laubacher, Scott Morton, R.Oldenburg<sup>1</sup> taʼkidlash lozim boʻlgan tadqiqotlar olib borgan.

MHD mamlakatlari olimlaridan K.M.Nikutkina, A.O.Privalova, V.L.Silayeva, M.Veber, L.Boltanski, E.Kyapello, A.V.Shevchuk, V.S.Xarchenko, J.T.Тощенко, G.A.Svetkova, N.V.Chaplashkin, V.V.Arhipov, Yu.I.Gribanov, M.V.Abramova, M.M.Kopyleva, A.A.Yefimov, Yu.I.Gribanov, A.S.Tuleybayeva<sup>2</sup> va boshqalar oʻzlarining tadqiqotlarida koʻrib chiqishgan.

---

<sup>1</sup>A. Etzioni. The Moral Dimension. Toward A New Economics (Ensioni Amitay. Moralnoye izmereniye: K novoy ekonomike). — The Free Press. USA, 1990; Codementor B (2017). How much do freelance developers cost around the world (July 7) Retrieved from; Ahmed Z (2017). Pakistan is ranked no.4.in the freelancing industry Report (July 24). Retrieved; S.D.Bodrunov, Dj.K. Gelbreyt. Konsepsiya novogo industrialnogo oboʻestva: istoriya i razvitiye. Uchebno-metodicheskoye posobiye. Yekaterinburg.2018, 37 b; Toffler E. Tretya volna. M.1999 g; Bailey D., Kurland N. A review of telework research: findings, new directions, and lessons for the study of modern work // Journal of Organization Behavior. 2002. № 23. P. 383-400.; Malone T. W., Laubacher R. The Dawn of the E-Lance Economy / Inventing the organizations of the 21st century / Thomas W. Malone, Robeit Laubacher, and Michael S. Scott Morton, editors. London; MIT Pre.s.s. 2003. P. 103-114.; Gareis K. eLanceing — The Future of Woik? <; Challenges and Achievements in E-business and E-work. B. Stanford-Smith ct.al. (eds.) IOS Piess 2002 P.448-457; Oldenburg R. The Great Good Place: Cafes, Coffee Shops, Bookstores, Bars, Hair Salons, and Other Hangouts at the Heart of a Community. New York. 1999

<sup>2</sup>Nikutkina K.M, Privalova A.O (2009). Zapadnye kolichestvennyye issledovaniya frilanserov: professionalnyy obzor. Ekonomicheskaya sotsiologiya. T.10 №1. Yanvar. 140 s; Silayeva V.L. Podmena realnosti kak sotsiokulturnyy mexanizm virtualizatsii obshchestva. Spetsialnosti 09.00.11 — sotsialnaya filosofiya. Dissertatsiya na soisk.uch.st. k.f.n. M., 2004; Veber M. Protestantskaya etika i dux kapitalizma // Veber M. Izbrannyye proizvedeniya. M., 1990; Boltanski L., Kyapello E. Novyy dux kapitalizma /U Logos. 2011. №1 (80) S 83; Shevchuk A.V. O budushem truda i budushem bez truda /• Obshchestvennyye nauki i sovremennost. 2007. №3. S. 44-54; V.S.Xarchenko. Frilans kak stil jizni v sovremennom Rossiyskom oboʻestve. Diss.na.sois.uch.step.k.s.n. Yekaterinburg.2013 g 38 s; Тощенко J.T. Svetkova G.A.. Sotsiologiya truda. — M.: Sentr sotsialnogo prognozirovaniya i marketinga, 2012; N.V.Chaplashkin. Frilans kak novoye sotsialnoye yavleniye i yego posledstviya. Diss.na.sois.uch.step.k.s.n. Moskva.2013 g, 46 s; V.V.Arhipov. “Vneshtatnyy rabotnik”: byt ili ne byt? Elektronnyy resurs// Portal KADROVIK.RU URL <http://www.kadrovik.ru/modules.php?op=modiloadd&name=News&file=article&sid=7657>; Yu.I.Gribanov. Sifrovaya transformatsiya sotsialno-ekonomicheskix sistem na osnove razvitiya instituta servisnoy integratsii. Diss. na. sois. uch. step. doktor ekonomicheskix nauk. Sankt-Peterburg.2019 g.59 st; Abramova M.V., Kopyleva M.M. E-government as one of the main elements of an inclusive government as an example of Canada // Vestnik Ufimskogo gosudarstvennogo aviatsionnogo texnicheskogo universiteta. 2014. T. 18. № 5. S. 109–113; Yefimov A.A. Sifrovaya demokratiya v Velikobritanii: teoriya i praktika gosudarstvennogo upravleniya i predostavleniya gosudarstvennykh uslug naseleniyu // Ekonomicheskkiye i sotsialno-gumanitarnyye issledovaniya. 2015. № 1 (5). S. 126–133; Yu.I.Gribanov. Sifrovaya transformatsiya sotsialno-ekonomicheskix sistem na osnove razvitiya instituta servisnoy integratsii. Diss.na.sois.doktora ekonomicheskix nauk.Sankt-Peterburg.2019 g.169 st; Tuleybayeva A.S. Razvitiye mejdunarodnogo rynka truda v usloviyax sovremennoy texnologicheskoy transformatsii. Diss.na.sois.dok.fil. ekom (PhD) Almaty. 2021 g.

## METODOLOGIYA

Maqolani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, jumladan statistik, qiyosiy tahlil va sintez usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR


Rivojlanayotgan mamlakatlarda esa birinchi navbatda internet tarmog‘ini ta‘minlashlari kerak bo‘ladi, internet tezligi past yoki yuqoriligi, ko‘plab mamlakatlarni internetga bo‘lgan ijobiy va salbiy yondashuvlari, internetdagi ijtimoiy va iqtisodiy xavf-xatarlarni yuzaga kelishi kabi omillar ta‘sirida frilanserlik faoliyati sekinlik bilan rivojlanib bormoqda. Shu sababdan doimo ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazib turish maqsadga muvofiqdir, yuzaga kelayotgan yangi-yangi muammolarni bartaraf etish, ularni yechimlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida frilanserlik faoliyatini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan islohotlar strategiyasini ishlab chiqish kerak bo‘ladi.

Birinchi, O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, huquqiy-normativ hujjatlarga o‘zgarishlar kiritish, bunda frilans, frilanserlik faoliyatiga aniq huquqiy baho berish orqali ular faoliyatini qonuniy asoslarini yaratish;

Ikkinchi, internet tarmoqlarida virtuallashgan axborot ta‘minot dasturlarini yaratish orqali frilanserlik faoliyati va onlayn mehnat bozorlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish;

Uchinchi, aholi o‘rtasida frilanserlik tushunchasi, undan daromad topish mumkinligi bo‘yicha tushunchalar berish, hamda davlat tomonidan ularga imtiyozlar berish mexanizmlarini ishlab chiqish.



**1-rasm. Frilanserlik faoliyati bo‘yicha onlayn so‘rovnoma,(foizda)<sup>1</sup>**


Yuqoridagi 3.1.1-rasm ma‘lumotlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, frilanserlik faoliyati bo‘yicha o‘tkazilgan 2020-yilda onlayn so‘rovnoma ishtirok etganlarni

<sup>1</sup> Muallif tomonidan 2020-yilda Farg‘ona, Andijon, Namangan viloyatlaridan 1500 kishi o‘rtasida o‘tkazilgan onlayn so‘rovnoma natijalari

eshitganligini tasdiqlaganlarini ko'pchiligi asosan shaharda istiqomat qiluvchilar tomonidan berilgan bo'lsa, ular asosan erkaklardan iborat bo'lib, ko'pchiligi oliy ta'limda, oliy ta'lim bilan bog'liq sohalarda, axborot texnologiyalari bilan bog'liq sohalarda ishlovchilar, hamda ilmiy tadqiqot muassasalari xodimlari, ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchilar va boshqaruv sohaslarida, tashkilot rahbarlaridan iborat bo'lgan aholi qatlamlari kiradi. Ular asosan yirik shaharlarda Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijon, Namangan, Buxoro, Urganch va boshqa shaharlarda istiqomat qiluvchilar hisoblanadi. Frilanslar to'g'risida ko'proq ma'lumotga ega bo'lganlar asosan oliy ta'limda faoliyat yurituvchilar ichidan chiqqan.

Birinchi bor eshitishim deb javob berganlarni asosiy qismi ayollar tashkil etgan, ularni 80-90 % qismi o'rta maxsus ma'lumotli va o'rta ma'lumotlilardan iborat bo'lgan holda ularni asosiy qismi qishloq joylarida istiqomat qilishadi. Bunga asosiy sabablardan biri esa internet tezligi, internet bilan ta'minlanishdagi muammolar sabab deb hisoblaymiz. Hamda frilanserlik faoliyati haqida eshitmaganlar ichida savdo sohasida va tibbiyot sohasi xodimlar, xizmat ko'rsatish soha xodimlari ichidan chiqishgan.

Qachondir eshitganman deb javob berganlarni asosiy qismini erkaklar tashkil etgan, ular asosan fuqarolik xizmatida, harbiy xizmat va kuch ishlatar tizimlarda ishlovchilar, shu bilan birga qurilishda, transport xizmati, qishloq xo'jaligida band bo'lganlardan iborat bo'lgan. Birinchi bor eshitganlar esa ko'pchiligi kasb yo'q bo'lganlar, muqim bir joyda ishlamaydigan aholi qatlamlari ichidan, oilaviy ajrimlar yuqori bo'lgan aholi o'rtasida ham uchraydi. Asosan ko'pchilik ayollar uyda o'tiradi, kasb-hunari yo'q bo'lganlarni frilanserlik faoliyatiga jalb etish mumkin, buning uchun katta mablag' talab qilmaydi, ular uchun kompyuter, internet bo'lsa bo'ldi.



**2-rasm. Shahar aholisi o'rtasida frilanserlik to'g'risidagi tasavvurlari, (foizda)<sup>1</sup>**

Bugungi kunda mamlakatimizda ko'plab internet saytlari, raqamli platformalar ishlab turibdi, youtube.com, Telegram kanallari faoliyat ko'rsatmoqda va ularda milliondan ortiq doimiy a'zolari mavjud, shu sayt kanallari orqali frilanserlik faoliyati

<sup>1</sup> Muallif tomonidan 2020-yilda Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlaridan 1500 kishi o'rtasida o'tkazilgan onlayn so'rovnoma natijalari

to'g'risidagi ma'lumotlarni tarqatish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Hozirda frilanserlar tarkibida ixtisoslashgan kasb egalari, masalan, dasturchilar, dizaynerlar, rassomlar, aktyorlar, modellar, fotograflar, injenerlar va arxitektorlar ko'pchilikni tashkil etadi.

Yuqoridagi so'rovnoma natijalari tahlil qiladigan bo'lsak, shahar aholining ko'pchiligi frilanserlik deganda erkin faoliyat deb 40,8 % aholi, uy sharoitida mehnat faoliyatini olib boruvchi deb 20,3 % aholi, mavsumiy mehnat deb 33,5 % aholi tomonidan ta'rif berishgan. Aholining 2,2 % qismi esa mehnat shartnomasiz ishlash mumkin bo'lgan kasb turlaridan deysishsa, 3,8 % qismi esa frilanserlik faoliyatini kreativ va innovatsion yondashuvlar zarur bo'ladigan kasb turlaridan deb hisoblashadi.

### Onlayn so'rovnomadagi respondentlarni frilanserlik faoliyatiga bo'lgan munosabati (foizda)<sup>1</sup>

№	Munosabat turlari	Munosabatlari (foizda)
1.	Umumiy holatda ijobiy baholayman	13,2
2.	Maqsadga erishish yo'lida ijobiy holat deb hisoblayman	25,2
3.	Betarafman	26,5
4.	Fikrim salbiy	10,9
5.	Umuman fikrim salbiy	2,3
6.	Qiynalaman javob berishga	21,9

Bundan tashqari so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarni katta qismi esa frilanserlik faoliyatini ijobiy va salbiy tomonlariga baho berishgan. Respondentlarni 38,4 % qismi erkin bandlik turi sifatida ta'rif berishgan, 33 % qismi ijobiy baholashgan, 23,2% qismi esa salbiy baholashgan, bunda inson yakkalashuvi kuchayadi, inson kasb kasalliklari rivojlanadi, o'zlarini yolg'iz his etish va mehnat jamoasi bilan turli tadbirlarni o'tkazish, bayram kechalarida ishtirok etish bo'lmaydi.

### 1-jadval.

#### Frilanserlik faoliyatining ijobiy va salbiy tomonlari<sup>2</sup>

Salbiy tomonlari	Ijobiy tomonlari
Barqaror bo'lmagan mehnat faoliyati	Erkinlik
Tartiblashmagan mehnat grafigi	Qiziqarli bo'lgan ishlarni qabul qilish imkoniyati
Olinmagan to'lovlar uchun tavakkalchi	Yuqori darajadagi daromadni mavjudligi
Aniq daromad manbaiga ega bo'lmagan faoliyat uchun vaqt sarflash	Portfolio va rezyumelar orqali mutaxassislarni jalb etish imkoniyati
Jamoaviy munosabatlarni bo'lmasligi, malaka oshirish muammolari	
Raqobat	
Keraksiz kasb uchun xatarni mavjudligi	

<sup>1</sup> Muallif tomonidan 2020-yilda Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlaridan 1500 kishi o'rtasida o'tkazilgan onlayn so'rovnoma natijalari

<sup>2</sup> Muallif tomonidan 2020-yilda Farg'ona, Andijon, Namangan viloyatlaridan 1500 kishi o'rtasida o'tkazilgan onlayn so'rovnoma natijalari

Shu sababdan frilanslar jamiyatdan ajralib qolish xavfi mavjud deb hisoblashadi va ularda ruhiy stresslar kuchayishi muammolari rivojlanadi. Ijobiy fikr bildirganlarni aksariyat qismi oliy ma'lumotlilardir, respondentlarni 2/3 qismi oliy ma'lumotlilar tashkil etadi. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ijobiy fikr bildirgan aholining katta qismi yirik shaharlarda istiqomat qiladi va javob berishga qiynalgan esa kichik shaharlarda yoki qishloq joylarda istiqomat qilishadi. Respondentlarni ijobiy holat deb hisoblaganlarni 60 % viloyat markazlarida yashaydi va bu hududlarda ayollar faolligi yuqoridir. Salbiy kasb sifatida fikr bildirgan respondentlarni katta qismi kichik shaharlarda yoki qishloq joylarda yashaydi, ularda erkaklar faolligi yuqoridir.

Bugungi kunda frilanslar faoliyatini o'ziga-xos xususiyatlari turli mamlakatlarda har xil ko'rinishda bo'ladi va ijobiy, salbiy tomonlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Respondentlarni ish bilan band bo'lganlari, aksariyat holda oliy ma'lumotlilar tomonidan frilanslik faoliyati ijobiy deb baholashmoqda. Asosiy mehnat faoliyati bilan birga virtual tizimlarda faoliyat ko'rsatib daromad olish odatiy holat sifatida qabul qilishmoqda.

Lekin biz uchun zarur bo'lgan ish bilan bandligi ta'minlashimiz zarur bo'lgan ishsizlar, kam ta'minlangan aholi qatlami tomonidan esa frilanserlik faoliyatini salbiy tomonlarini ko'proq ko'rishmoqda, ammo ularni uydan chiqmagan holatda ish bilan bandligini ta'minlan, muayyan miqdorda daromad bilan ta'minlashni asosiy maqsad qilib olganmiz. Shu sababdan bu aholi qatlami fikrlari, ichki kechinmalari, ruhiy bosim ostida qolish va qolmasliklari tadqiqotimiz uchun eng muhim tomonlaridan biri hisoblanadi.

Bunday frilanslarni ijobiy tomonlari to'g'risida ko'proq ma'lumot berish orqali ular safidan yangi frilanslarni tayyorlash yo'llarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Shu bilan birga elektron frilanserlikni ko'proq targ'ib etish zarur. Hamda muallif fikriga ko'ra esa mamlakat aholi ichidan asosan kam ta'minlangan, ishsiz bo'lganlarni, umuman barcha aholi qatlamini frilanserlik faoliyatiga qiziqtirish orqali frilanserni qiyofasini shakllantirishda ularni ijobiy tomonlarini yoritish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari axborot texnologiyalariga asoslangan raqamli platformalarni ishlatish, ulardan foydalanish frilansdan ma'lum malaka va ko'nikmalarni talab etadi. Oliy ta'lim muassasalari, texnikumlar, kasb-hunar kollejlarida axborot texnologiyalarini chuqur o'rgatish, ularni shu orqali daromad topish mumkinligini amalda ko'rsatish yo'llari bilan mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarni yangi kasb-hunarlarga qiziqtirish mumkin bo'ladi. Raqamli kasb bilan shug'ullanish uchun ko'proq katta shaharlarda imkoniyat yuqori, kichik shaharlarda va qishloq aholi manzilgohlarida imkoniyatlar chegaralangan.

Bunga asosiy sabab sifatida qishloq joylarida internet tezligini pastligi, aholi tomonidan buyurtmalar berilmasligi, raqamli kasblarga bo'lgan talabni pastligini ko'rsatish mumkin. Qishloq aholi manzilgohlarini asosiy faoliyat turlarini aniqlab, qishloq xo'jaligi bilan ko'pchilik shug'ullansa ularga mos keluvchi xizmatlarni taklif etish lozim. Masalan: qishloq aholisining ko'pchiligi teplitsa ishlari bilan, mevalar yetishtirish, ma'lum qismi chorvachilik bilan, ya'ni asalarichilik bilan shug'ullansa,

shularga xizmat qiluvchi Telegram guruhlarini tashkil etish, Youtube kanallarida maxsus kanallar ochish bilan ularni raqamli kasb-hunarlariga qiziqtirish mumkin.

Tadqiqotlarni o'tkazish davomida shuni angladikki, ko'proq frilanserlikga qiziquvchilarga erkin mehnat grafigi ma'qul bo'lmoqda, ular dastlab kamroq daromad qilsada, karyerasi o'sayotganligidan va mijozlari virtual platformalarda ko'payotganligidan bu faoliyat ularga ma'qul tushmoqda. Mehnat bozorlarida frilanslarni erkin faoliyat ko'rsatishlari uchun ularda kam xarajat bilan ish boshlashlari bo'lsa, frilanserlik uchun kompyuter va internet zarur bo'ladi. Shu sababdan xizmatlar bozorini frilanslar egallab olmoqda.

Ish qidirish, elektron savdo kuchayib bormoqda, biz ham internetda professional foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Shu sababdan mamlakatimizda "Professional internetdan foydalanish" fondini tashkil etish kerak, bu orqali frilanserlar uyushmasi shakllanadi. Dunyo xo'jaligini globallasuvi, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish zarurligi, yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari negizida frilanserlik faoliyati jadal rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Dunyo mamlakatlaridagi bunday jiddiy, tarkibiy o'zgarishlar fonida mamlakat iqtisodiyotini shunday o'zgarishlarga moslashtirib rivojlantirish zarurdir. Axborot texnologiyalari, kommunikatsion texnologiyalarni jadal rivojlanishi ham o'z navbatida frilanslar oqimini kengaytirmoqda. 2007-2008-yillardagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi va 2020-yilning boshida boshlangan "COVID-19" koronavirus pandemiyasi ta'sirida boshlangan inqiroz esa raqamli texnologiyalarga asoslangan raqamli kasb-hunarlarini rivojlantirishni oldimizga qo'ydi.

Buning ta'sirida ko'plab ish o'rinlari qisqardi, ishsiz qolganlar esa o'zlari uchun qulay ish o'rinlarini izlay boshladilar. 2007-2008-yillardagi inqirozdan ko'ra 2020-yildagi inqiroz davrida ko'proq frilanserlik faoliyatiga qiziqish orta boshladi. Bu sohani keng ko'lamda rivojlanmasligiga asosiy sabablardan biri esa mamlakat qonunchiligi orqali frilanserlik faoliyatini nazorat qilinmasligi va tartibga solinmasligi hisoblanadi. Aholi bandligini oshirish eng muhim iqtisodiy – ijtimoiy kategoriyalardan biridir. Har bir fuqaro mehnat qilishi, uning otidan daromad topishi mamlakatimiz qonunchiligida alohida e'tibor qaratilgan.

Shu sababdan mehnat bozorini tahlil qiladigan bo'lsak, asosan frilanserlik faoliyati uchun qulay sohalardan biri xizmat ko'rsatish va ishlab chiqarish uchun zarur ehtiyot qismlarni etkazish kabi xizmat turlari hisoblanadi. Mehnat bozorlarini asosiy vazifalaridan biri esa ishtirokchilarni optimal darajada ish bilan ta'minlashdan iborat. Bunda jamiyatning barcha ishtirokchilarini ta'minlash orqali mamlakat mehnat salohiyatidan foydalanish yo'llarini taklif etadi. Frilanserlikni jadal rivojlanishi ta'sirida onlayn mehnat bozorlari rivojlanib va shakllanib bormoqda. Bizning fikrimizcha onlayn mehnat bozorlari — bu barcha mehnat qilish, mehnatga yollash, yollanish bilan bog'liq barcha munosabatlar va jarayonlarni internet tarmoqlari orqali amalga oshirilib, o'zlari uchun munosib ish faoliyati topishlari mumkin bo'lgan o'ziga xos bo'lgan bozorlariga aytiladi.

Tadqiqotda ishtirok etgan bir necha mutaxassislar fikriga ko'ra, onlayn mehnat bozorlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar mavjudki, ularni e'tibordan qochirish mumkin emas. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- onlayn mehnat bozorlarini davlat tomonidan nazorat qilinmasligi, barcha ishtirokchilarni qonuniy huquqlari to'liq ta'minlagan emas;
- onlayn mehnat bozorlaridagi tomonlar kelishuvi bo'yicha me'yoriy-huquqiy normalarni mavjud emasligi ortidan onlayn firibgarlik rivojlanib bormoqda;
- mehnat bozori konyukturasining tez o'zgaruvchanligi, talab va taklifning tez mavsumiy o'zgarishlarni ko'pligi, buning hisobiga onlayn mehnat bozorlarini barqaror rivojlanmasligiga sabab bo'ladi;
- frilanserlik va onlayn mehnat bozorlari faoliyat ko'rsatishi uchun zarur infrastrukturani rivojlantirish, unga yordam beruvchi xizmatlar va tashkilotlar faoliyatini rivojlantirish zarur;
- rivojlanishi ta'sirida virtual mehnat bozorlari rivojlanib va shakllanib bormoqda. Hamda bir necha mutaxassislar fikriga ko'ra, onlayn mehnat bozorlarini shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar mavjudki, ularni e'tibordan qochirish mumkin emas.

Mehnat bozorini va frilanserlik faoliyatini bunday rivojlanishi asosan bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan mamlakatlar uchun juda xam muhim hisoblanadi. Frilans-xizmatlar bozorlarini rivojlantirish bilan birga ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi olimlar o'rtasida frilanserlik faoliyati yanada jadal rivojlanish sur'atiga erishdi. Bizning fikrimizga ko'ra, frilans-xizmatlar bozori – bu frilanserlik faoliyati bilan bog'liq bo'lgan sohalar, internet tarmoqlari orqali frilanserlik xizmatlari ko'rsatiladi, u bilan bog'liq bo'lgan saytlar va raqamli platformalari orqali ko'rsatiladigan maxsus bozorlarga aytiladi.

Hozirgi kunda bunday bozorlar jadal rivojlanish sur'atiga erishishni imkoni mavjud emas. Unga sabab sifatida mamlakatdagi barcha aholi bunday internetda faol bo'la olmaydi, internet doimiy bo'lmasligi, uning tezligini pastligi, internet tariflarini mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlariga nisbatan qimmatligi kabi omillarni ko'rsatish mumkin.

Ilmiy tadqiqotlar natijasini ko'radigan bo'lsak, ijtimoiy-demografik jarayonlar tezligi yuqori va pastligi ham internet foydalanuvchilarni yosh tarkibini belgilashda xizmat qiladi. Hamda aholi qatlamini keng masshtabda internetga kirishi natijasida frilanslar, frilanserlik faoliyati, onlayn mehnat bozorlari, frilans-xizmatlar bozorlariga kirish imkoniyatlari ochiladi.

Shu bilan birga frilanslarga bo'lgan ehtiyojni ortishi iqtisodiy inqirozlar, post inqiroz davrida, pandemiya davrlarida ortdi, bu davrda mutaxassislarni etishmasligi, asosiy shtatdagi mutaxassislarni ushlab turishdagi qiyinchiliklar sababidan ularni onlayn shaklda ishlashga o'tishlari mumkin. Istiqboldagi rivojlanish davrida inqirozlar yuz bermasligiga hech kim kafolat bera olmaydi, shu sababdan mamlakatimiz iqtisodiyotida frilanslar va frilanserlik faoliyatini kengaytirish zarurdir. Turli-tuman kompaniya, firmalarni ishga tushirish orqali frilans-saytlarni yuritish kerak bo'ladi.

Bundan tashqari barcha masofali mehnat frilanserlik faoliyati deb nomlashni iloji yo‘q, u erda frilanslar faoliyat ko‘rsatmaydi. Frilans-xizmatlar ko‘rsatish orqali ular rivojlanadi, frilanslar bilan bog‘liq ko‘plab hal etilishi lozim bo‘lgan masalalar va muammolar mavjud, ularni bosqichma-bosqich hal etib o‘z yechimini topish strategiyalari ishlab chiqilmoqda.

Shu bilan birga O‘zbekiston hukumati frilanserlar uchun bir qator imtiyozlar paketini taqdim etishni maqsad qilgan bo‘lib, bu haqda 2021-yil 22-aprel kuni Prezident Shavkat Miromonovich Mirziyoyev rahbarligida o‘tkazilgan videoselektorda “Ushbu xabarga ko‘ra bugungi kunda ko‘pchilik odamlarni dizayn, tarjima, dasturlar, reklama, repetitorlik va boshqa sohalarda onlayn xizmat ko‘rsatilayotganligi ta’kidlandi. Lekin frilanserlar uchun masofadan turib hisob raqamini ochish, pochta, to‘lovlarni qabul qilishda qator to‘siqlar mavjud. Oqibatda ushbu faoliyat bilan shug‘ullanuvchilarning xarajatlari 2-3 barobar oshib ketmoqda. Shu bois bu faoliyat turlari uchun imtiyozlar va preferensiyalar berish, yoshlarni internetdan foydalanib, aqliy mehnat orqali daromad topishga o‘rgatish, sohani rivojlantirish uchun xorijda ommabop bo‘lgan to‘lov tizimlarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha topshiriq berildi”.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasida frilanserlik faoliyatini 2022-2030-yillarda rivojlantirish strategiyasi”ni ishlab chiqish zarur, bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, tashkilotlar hamkorligi, texnologik platformalar faolligi oshishi, internet-servislarini barqaror rivojlantirish imkoniyatlari ochiladi.

“Shu bilan birga “Digital Uzbekistan” loyihasida o‘zbek frilanseri to‘g‘risida ma’lumot berib o‘tildi, Nabijonov Jasurbek o‘zbek frilanseri hisoblanadi, u 3000-4000 AQSh dollari miqdorida daromad topib bormoqda. U asosan AT, dasturlar sohasi mutaxassisi hisoblanadi”. Mamlakatimiz yoshlari o‘rtasida bunday frilanslar asta-sekinlik bilan ko‘payib bormoqda, navbatdagi beriladigan imtiyozlar va preferensiyalar esa ular miqdorining oshishiga sabab bo‘ladi.

Bizda asosan ishsizlik muammosi ko‘p uchraydigan qishloq aholi o‘rtasida frilanslik keng targ‘ib etish va ularni sohaga qiziqtirish ishlarini majmualar tarzda barcha hududlarga olib borishi kerak bo‘ladi. “Loadash startup loyihasi asoschisi Bobur Meliev frilanserlik bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashdi, qanday ro‘yxatdan o‘tish, banklarni tanlash, to‘lovlar qilish, soliqlar to‘lash bo‘yicha ma’lumotlar berdi”.

Bugungi kunda an’anaviy iqtisodiyot tarmoqlarida jiddiy o‘zgarishlar raqamli texnologiyalar ta’sirida o‘zgarib bormoqda, axborot, intellektual bilimlar, raqamlashtirish iqtisodiyotning zarbdor uchligiga aylanib bormoqda. Shu bilan birga dunyo xo‘jaligidagi chuqur tarkibiy o‘zgarishlar va inqirozlar ta’sirida an’anaviy iqtisodiyot jiddiy o‘zgarishlar ta’siriga tushib qoldi.

Mamlakatimizda frilanserlik faoliyatini rivojlantirish, sohaga oid muammolarni aniqlash orqali ularni hal etish yo‘larini ishlab chiqishdan iborat. Dunyo mamlakatlaridagi frilanserlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar bugunki kundagi holati, raqamli texnologiyalar asosida dunyo xo‘jaligini rivojlanishi bo‘yicha ma’lumotlar taqdim etilgan. Shu bilan birga axborotlashgan jamiyatni rivojlanishi natijada frilanserlik faoliyatini innovatsion va kreativ rivojlantirish maqsad qilingan.

1. O‘zbekiston Respublikasida frilanserlik faoliyatini rivojlantirish bugunki kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Bunday ishlarni amalga oshirish uchun mamlakatimizda bir necha bosqichdan iborat bo‘lgan islohotlar strategiyasini ishlab chiqish taklifi ishlab chiqildi;

2. O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga, huquqiy-normativ hujjatlarga o‘zgarishlar kiritish, Mehnat kodeksi yangicha tahririni ishlab chiqishda frilanslar, frilanserlik faoliyati bo‘yicha aniq me‘yorlar belgilash, frilanserlik faoliyatiga aniq huquqiy baho berish orqali ular faoliyatini qonuniy asoslarini yaratish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar tayyorlandi;

3. Internet tarmoqlarida virtuallashgan axborot ta‘minot dasturlarini yaratish orqali frilanserlik faoliyati va onlayn mehnat bozorlari faoliyati o‘rganildi;

4. O‘tkazilgan onlayn so‘rovnoma natijalari tahlil qiladigan bo‘lsak, shahar aholining ko‘pchiligi frilanserlik deganda erkin faoliyat deb 40,8 % aholi, uy sharoitida mehnat faoliyatini olib boruvchi deb 20,3 % aholi, mavsumiy mehnat deb 33,5 % aholi tomonidan ta‘rif berishgan. Aholining 2,2 % qismi esa mehnat shartnomasiz ishlash mumkin bo‘lgan kasb turlaridan deyishsa, 3,8 % qismi esa frilanserlik faoliyatini kreativ va innovatsion yondashuvlar zarur bo‘ladigan kasb turlaridan deb hisoblashadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралда “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида кўзда тутилган мамлакатни 2017- 2021 йилларда ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегияси.-Т.: Ўзбекистон, 2017

2. Гретченко А.И, Горохова И.В (2019). Цифровая платформа: новая бизнес- модель в экономике России. Вестник РЭУ им. Г.В.Плеханова. №1, 63 с.

3. Ahmed Z (2017). Pakistan is ranked no.4.in the freelancing industry Report (July 24). Retrieved

4. Codementor B (2017). How much do freelance developers cost around the world (July 7) Retrieved from

5. Shevchuk A, Strebkov D, Davis S.N (2015). Educational mismatch, gender, and satisfaction in self-language internet freelancers. Research in Social Stratification and Mobility. Vol 40, June 01, pp 16-28

6. Nawaz Z. Zhang, J. Mansoor R, Hafeez S, Ilmudeen A (2020). Freelancers as Part- time Employees Dimensions of FVP and FJS in E-Lancing Platforms. South Asian Journal of Human Resources Management. vol 7, Issue 1,1, June pp 34- 60

7. Will Sutherland, Mohammad Hossein Jarrahi, Michael Dunn, Nelson S (2020). Work Precocity and Gid Literacies in Online Freelancing. Work, Employment and Society. Vol 34, issue 3,1, June pp 457-475.

8. Bailey D.T., Kurland N.B (2002). Areview of telework research findings, new directions, and Lessons for the study of modern work. Center for Work, Technology and Organization, Department of Management Science and Engineering. Stanford University, USA

9. Banning D (2005). Executive Summary Survey of Freelancer Journalists. [http // www.mediabistro.com/ mbtoolbox/ watercooler/survey\\_says\\_19975.htm](http://www.mediabistro.com/mbtoolbox/watercooler/survey_says_19975.htm)
10. Nies G., Pedersini R (2003). Freelance Journalists in the European Media Industry. [http//www.ifg.org/pdfs/FinalReportFreelance](http://www.ifg.org/pdfs/FinalReportFreelance).
11. Шваб К. Четвертая промышленная революция. “Эксмо”, 2016- (Top Business Awards) 12 с.
12. Чаплашкин.Н.В. Фриланс как новое социальное явление и его последствия.  
Дисс.на.соис.уч.степ.к.с..н. Москва.2013 г, 46 с.,62 с.113 с.
13. Харченко В.С. Фриланс как стиль жизни в современном Российском обществе. Дисс.на.соис.уч.степ.к.с..н. Екатеринбург.2013 г 38 с.53с.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhah:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, noyabr, 11-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610  
Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlararo standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**